

“Men. Bas qil, ey nafs!” (Fotih Duman)

(*Taqriz*)

Asar, hayolotidagi har xil va chalkash savollarga javoblarni, tasodif (balki) tufayli qo’liga tushgan, bir qissa haqida hikoya qiluvchi kitob sababli, topish baxtiga muyassar bo’lgan yigit haqida (aslidachi).

* * *

Nega oldin eshitmaganman, nega ahamiyat bermadim? Qalbim nafaqat ko’r, balki kar ham ekan, aniqrog’i bu qalb faqatgina nafsnинг so’zlarini eshitishga o’rganib qolganmidi, bilmadim. Nega men (biz) qalbning nazoratini asil egasiga emas, balki shayton hukmi ila amal bajaruvchi nafsga “ishonib” topshirdim, tushunmayman. Tushunishim u-yoqda tursin, bunday savollar bo’limgandi ham.

Biz tasodif deb o’ylagan barcha voqelik asli mo’jiza. Ichimizdagи har bir ovoz, mana shu qalbning, ha o’sha shum fe’l nafsnинг ham asl yaratuvchisi bo’lmish Robbimning marhamati ekan. Quloq solishni o’rgandim va men eshitdim, ha men eshita oldim (oldinlari faqat zohirlikni eshitgan ekanman). Qalbim esa, esimni tanibmanki bunday biroz tushunarsiz, ammo yoqimli bo’lgan hisni tuymagan. Bunday his oldin ham, balki men tug’ilgan seshanba oqshomida sodir bo’lgandir, xozir bu muhim emas. Mana! Ushbu kitob menda qanday tassurotlarni uyg’otdi, shunchaki o’qish emas, uni his qilib o’qimoq darkor.

* * *

Agar men bolalar yozuvchisi bo’lganimda ushbu asarni, “Nafs va uning nayranglari” (bema’nilik to’g’rimi?) deb atagan bo’lar edim, afsuski men na bolalar na kattalar yozuvchisiman. Asarning mazmuni, uning nomiga ko’z tashlangandayoq ma’lum bo’lib ulguradi, ya’ni “Men”, “Men” bu “Nafs”, mazmun ham mana shu. Yoritib berish uchun ajoyib usul tanlangan. Darbadar yigitning qo’liga kitob tushib qolishi-yu, undagi nafsnинг nomidan hikoya qilinuvchi qissa, vaholang-ki u deyarli kitob o’qimagan. Bundan tashqari kitob yigitning ruhiyatiga bo’lgan ijobiy ta’siri haqida ham so’zlaydi. Xullas, asarda Aziz Mahmud Xudoiy qissasi orqali “telba” yigit ruhiy xotirjamlik topgani va borliqqa endi qalb ko’zi bilan ham boqa olganiga guvoh bo’lamiz. Albatta, kitob ichidagi kitobning asosiy qahramoni bo’lmish Xudoiyning ham, mana shu taxallusga osonlikcha erishmagani va u kim tomonidan berilgani insonni ta’sirlantirmay qo’ymaydi. Yozuvchi maqsadiga erishdi (balki), o’qiguvchi esa savollariga (kimdur qisman, kimdur to’liq) javob topa oldi deb aytish mumkin.

* * *

Kitobning afzalliklari haqida yozadigan bo'lsam. Umumiy afzallik – ushbu kitob, o'qishga arzigulik mazmunga ega bo'lган qissani o'z ichiga olganligi va o'qiguvchi, undagi qissadan qanchalik ta'sirlanish mumkinligi haqida yoritib berilganligidir. Eng muhumi esa yozilish uslubi, nafsning tili bilan yozish yaxshi va o'zini oqlagan g'oya. Yana bir afzallik – asarda o'qiguvchi uchun, nafsning ham yetarlicha ojiz tomonlari bor ekanligi haqida, xabarnomalar borligidadir, bu esa, asarning har bir mavzusiga bitilgan iqtiboslarda sezilib turdi. Eng asosiysi esa, ichingdagi ovozlarni kim yo'llayotgani va u nimalarni qilishingga sababchi bo'layotgani haqida tafakkur qilishga udashidir. (Yana bir qancha afzalliklar haqida yozadigan bo'lsam u shunchaki taqriz emas, balki taqriziy kitob kayfiyatida in'om etilishiga to'g'ri kelardi)

Ikki kamchilik – biri asarning tezda tugab qolgani bo'lsa, biri asarda nafs biroz zaiflashtirib ko'rsatilmadimikin, degan xulosa kelib chiqgani bo'ldi. Aynan ikkinchi kamchilikni bejizga qalamga olmadim, bunga qisqacha to'xtalib o'tsam. Bizning zamonamizdagi nafs ancha sayqallangan, ulg'aygan va yetilganmi uni yengishning sira ilojisi yo'qdek ko'rindi menga. Balki, balki biz (ruhimiz) juda zaiflashib ketdik, yoki aytganimdek nafs yaxshigina kuchga to'lgan. Uchinchi tomoni ham bor, bizda Uftodalar va Xudoiylar singari uzlatning xidoyat nurlarini topa olganlar va uni ilmsiz qalb ko'zi xira tortganlarga yetkazib beruvchilar topilmayotganimikin, bo'lsa ham biz tanimasmiz (yoki tanitilmas).

Qisqa qilib aytganda, qalbidagi sof sadaflikni, so'zlar orqali shunday, ammo biroz qoraygan qalblarga yetkazib beruvchi topilmayotgani, umumiy kamchilikdir nazarimda.

* * *

Xulosa qiladigan bo'lsam, albatta o'qilishi kerak bo'lган qissani o'z ichiga olgan asar. Nafaqat ko'rish, balki eshitish orqali ham o'qiladigan kitob. Dunyodan mo'minlikni afzal ko'rvuchi kitob, sof Islomni sevdiruvchi kitob.

Ushbu kitobni, men (biz) kabi qalbini jarohatlab olganlar uchun tavsiya qila olaman, botiniy ovozlarning egalarini bilmoxchi bo'lганlar uchun ham ayni muddao.

(Imloviy xato va kamchiliklar uchun, kamina hodimingiz uzur so'rab qoladi)

(Ushbu taqriz Izzat Arslon tomonidan yozildi)